

MAQSUD SHAYXZODA-IKKI XALQNING DILBANDI



Masharipov Masudjon Numonjonovich

PhD, dotsent, Toshkent davlat transport universiteti

masudcha@mail.ru

Hasanov Sirojiddin Nizomiddin o'g'li

talaba, Toshkent davlat transport universiteti

sirojiddinhasanov0@gmail.com

Davronov Navodir Rahmonovich

talaba, Toshkent davlat transport universiteti

davronov665@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada xalqimizning sevimli shoiri, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzodaning hayotiy kechinmalari va ijodi keng talqin qilingan. Shu bilan birga maqola Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiga katta qiziqish uyg'otadi va uni mukammal o'rganishga undaydi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, she'r, dramma, doston, O'n she'r, Undoshlarim, Toshkentnoma dostoni.

Аннотация: В данной статье широко осмыслены жизненный опыт и творчество любимца нашего народа поэта, драматурга, литературоведа, переводчика, педагога Максуда Шейхзаде. В то же время статья вызывает большой интерес к жизни и творчеству Максуда Шейхзаде и побуждает его досконально изучить ее.

Ключевые слова: Максуда Шейхзаде, поэма, драма, эпос, Десять стихотворений, Согласные, эпос Ташкентнама.

Annotation: In this article, the life experiences and creativity of Maqsud Sheikhzadeh, our nation's favorite poet, dramatist, literary scientist, translator, pedagogue, are widely interpreted. At the same time, the article arouses great interest in the life and work of Maqsud Sheikhzadeh and encourages him to study it thoroughly.

Key words: Madsud Sheikhzadeh, poem, drama, epic, Ten poems, Consonants, Tashkentnama epic.

Maqsud Maqsumbek o'g'li Shayxzoda (Maqsud Shayxzoda)-1908-yil 7-noyabr sanasida, O'zarbayjon Respublikasi, Ganja viloyati, Oqtosh shahrida tavallud topdi. Maqsud Shayxzoda shoир, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1964). Bokudagi doril-mualliminni tugatgan (1925). Dastlab Darbanddag'i

1-bosqich ozarbayjon məktəbida, Bo'ynoqdagi ta'lif va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga

olinib, 1928-yil fevralda Toshkentga surgun qilingan. Shayxzoda O‘rta Osiyo universitetining Sharq fakultetida qisqa muddat o‘qigani (1928)dan keyin “Sharq haqiqati” (1929-1932), “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalari (1932), “Guliston“ jurnali (1933-1934) tahririyatlarida xizmat qilgan. 1933-yil Bokudagi pedagogika institutining barcha kurslari uchun imtihon topshirib, Fan qo‘mitasi qoshidagi aspiranturaga o‘qishga kirgan (1934). Ayni paytda Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan (1935-1938). 1938-yildan umrining oxiriga qadar dastlab kechki, so‘ngra kunduzgi pedagogika institutlarida o‘zbek adabiyoti tarixidan ma’ruza o‘qigan.[1]

“Qo‘llar” she’rida qo‘llarda insonning borlig‘ini, uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Uningcha, “g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar” ham “ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi

Bu qo‘llar, qo‘llar,

Qo‘llarni qaysi bir ta’rif ma’qullar?

Daraxt belgilaydi ko‘lankasini,

Qo‘llar ham qo‘llaydi o‘z egasini,

Buyruqni bajarmoq qo‘l hunaridir,

Ha, qo‘llar – yurakning navkarlaridir.

Maqsud Shayxzoda va G‘afur G‘ulom o‘rtasidagi inoq do‘stlik munosabatlarini shu misralaridan ham anglasa bo‘ladi. Nafaqat bu she’rda balki bir necha she’rlarida G‘afur G‘ulom nomini yodga oladi, bu bilan u chin ma’noda haqiqiy do‘st jonkuyar insondir. G‘afur G‘ulom bilan birgalikdagi qirq yillik qadrdonligi, birga chekkan zahmatlariyu, quvonchlarini she’rga soladi.

“Xayr!” demay ketganing ne deganing u?

“Tez qayturman bemuhlat!” deganingmi u?

“O‘lim asli o‘tkinchi bir hodisa-yu,

Hayot mangu bir holat!” deganingmi u?

Qaydan seni qidiray, adresing qayer?

Kimdan seni so‘rayin? Odamlar ne der?

Mangu elda esdalik bo‘lsin deb mendan,

Borib yetgay bu xatim senga daf'atan.

Oh, qardoshim, og'ajon, piri barkamol,

Qirq yillik bir daftardir xotira, xayol.

Eh-he, ne-ne kunlarni kechirdik birga,

Nahot, ular barchasi cho'kdi qabrga? [2]

Shayxzoda Ikkinci jahon urushi yillarida yozgan "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mug'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shoxining jangovar jassoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. „Mirzo Ulug'bek“ (1961) tragediyasida Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek xalqi hayotida ro'y bergan uyg'onishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulug'bek hayotining sunagi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixidan munosib o'rin egallagan mashxur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda sultanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo'lganini ham haqqoniy ko'rsatgan. Shekspirona ko'lam va harorat bilan yozilgan „Mirzo Ulug'bek“ tragediyasining maydonga kelishi o'zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqeа bo'ldi. Shayxzoda ssenariysi asosida rejissor L. Fayziyev tomonidan yaratilgan „Ulug'bek yulduzi“ (1964) filmi esa keng xalq ommasiga ulug' o'zbek olimi va uning fojiali taqdiri bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o'ynadi. U Sh.Rustavelining „Yo'lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U.Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinding she'rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she'rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi. Shoир 1967-yil Toshkentda vafot etdi. 2001-yili o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Buyuk hizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi [. Maqsud Shayxzodaning o'zbek adabiyoti, madaniyati ravnagiga qo'shgan hissasi mustaqil O'zbekiston va uning hukumati tomonidan munosib e'zozlandi. Qator maktab va ko'chalar uning nomi bilan taqdirlangan. [3]

XX asr o'zbek she'riyati rivojida Maqsud Shayxzodaning o'rni katta. Rang barang shakl va mazmun, ko'tarinki ruh, o'ktam pafos bilan sug'orilgan she'rlaridagi quyma obrazlar, ramziylik, so'zlardagi jarangdorlik, musiqiy salobat shoир asarlariga ajib badiiy yaxlitlik baxsh etadi, o'quvchi qalbida shularga monand hissiyotlar to'lqinini uyg'otadi. Shoир hech qachon, kitobiy, sun'iy muammolarni izlamadi. U eng

avvalo, o‘zini hayajonga solgan, o‘zidagi fuqarolik va poetik hujayralari ko‘zini ochgan masalalarga murojaat etadi. Shoир uyg‘otgan yog‘dular kitobxon qalbi, shuurga ham ko‘chib o’tadi. O‘zining yangi umrini boshlaydi. Uning she’rlarida, ayniqsa, chiroyli badiiy obrazlar mo‘ldir. Shoирga ba‘zan dengizdagи nuqtadek qayiq “suv ustidagi xol” bo‘lib tuyulsa, ba‘zan chag‘alaylar quyrig‘i “Ufqqa berilgan savol” bo‘lib jaranglaydi. Shayxzoda she’rlari “Chorak asr davomida”, “Dunyo boqiy”, “Xiyobon” singari o‘nlab to‘plamlarda bosilib chiqdi. Bu she’rlar yuksak insoniy orzular bilan yashayotgan zamondosh xayollari, muhabbat, dardlari, umidlari bilan kuylandi. To‘g‘ri, qirq yil davom etgan ijodida Shayxzoda Lenin, Kreml, sho‘rolar, irqa va firqaviyarlari ham kuyladi. Lekin bu zamon va tuzumning shoир taqdiri va ijodidagi muhridir. Biroq Shayxzoda she’riyatining qimmati bu yo‘nalishdagi asarlar bilan emas, inson qalbining nozik va betakror holatlarini nafis va ko‘tarinki, umidvor aks ettirib, o‘quvchida ana shunday go‘zal onlarning yanada boyishida xizmat qiluvchi asarlari bilan belgilanadi. [4]

Shayxzoda shoирning asosiy vazifasini “inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko‘paytirish, xalqqa go‘zallik va nafosat tuyg‘usini yanada baland darajada ko‘tarishda” deb bilgan edi. Uning “Toshkentnoma” nomli lirik falsafiy dostoniga munosabatda ham shu nuqtayi nazardan kelib chiqish to‘g‘ri bo‘ladi. Shoining bu fikrlari o‘zining aksar she’rlari uchun ham ochqich bo‘la oladi. Maqsud Shayxzoda fikricha va iqroriga, hayotdagи buyuk ne’matlardan biri she’riyat, tengsiz go‘zalliklardan biri she’rdir. Shayxzoda “She’r chin go‘zallik singlisi ekan” nomli she’rida butun ijodi bo‘ylab porlagan – she’riyatning insonga cheksiz go‘zalliklar, ruhiy tovlanish va evrilishlar in’om etguvchi mohiyatini kuylaydi, uning yangi-yangi qirralarini ochishga intiladi. She’r sarlavhasidagi fikr, bir jihatdan, yangilik emasdek. Unga yaqin qarashlarni Navoiy, Pushkin, Yesenin, Cho‘pon ijodida ham uchratamiz. Biroq she’riyatning yozilmagan qoidalariga ko‘ra, asosiy masala, asarga turtki bo‘lgan fikr va ifodalananayotgan ma’nodagina emas, balki ularning badiiy namoyon etilish tarzi, o‘quvchi ruhiyatida yangi to‘lqinli tuyg‘ularni uyg‘ota bilish san’atidir. Shayxzodaning “She’r chin go‘zallik singlisi ekan” asari shu jihatlari bilan qimmatli. [5]

Asarda she’riyat, inson tabiatini va umrini yashnatib turuvchi ulug‘ xosiyatlardan biri sifatida ulug‘lanadi. She’r bilan oshno bo‘lish, muallif fikricha, inson fe’l-atvorini, quvvayi ziyyosini, ma’naviyatini sermazmun qiladi, ruhiyati barkamol bo‘lishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Maqsud Shayxzodani shoир va yozuvchlar shunday tariflaytdi: Shayxzoda aql ma’nosidagina emas, siymo ma’nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og‘aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma yerda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg‘usini jo‘shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, Ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini

aytdi. Shu so‘zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondagи quyosh ko‘chib tushgandek bo‘ldi (Maqsud Shayxzoda haqida xotiralar sahifasidan). [6]

O‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalari – G‘afur G‘ulom va Oybек kabi otashnafas san’atkorlar safida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda zuvalasi she’riyat shu’lasi bilan yorilgan kuychi edi. Uning asarlarida buyuk inqilobiy ideallar, jo‘shqin vatanparvarlik tuyg‘ulari, chinakam ijodiy hissiyotlar bilan yashagan yoniq qalbning gulduros aks sadosi mujassam topgan (Mirzo Ibrohimov, Ozarbayjon xalq yozuvchisi “Qirq yil muqaddam XX asr o‘zbek adabiyotining buyuk siymolaridan biri Maqsud Shayxzodaning jabrdiyda yuragi urishdan to‘xtadi. O‘tgan davr mobaynida uning tengdoshlari, izdoshlari, shogirdlari va muxlislarining ham aksari hayotdan ko‘z yumi. Shu davrda tug‘ilib voyaga yetgan avlod esa uning jo‘shqin so‘zini eshitmay, nurli chehrasini ko‘rmay, tanti qalbining saxovatidan bahramand bo‘lmay o‘smoqda. Binobarin, ularning Shayxzodani nafaqat buyuk shoir, balki buyuk inson sifatida ham idrok etishi, uning porloq iste’dodi oldida ta’zim qilishi qiyin. Shuning uchun ham bu otashnafas shoirning hayoti va ijodi, qanday noyob siymo bo‘lgani to‘g‘risida yozish biz – zamondoshlarning vazifamizdir” deb yozadi - Naim Karimov. [7]

Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘sghan, mustabit tuzumi davrida azob chekkan, shoir, dramaturg , adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. Uning she’rlarida jo‘shqinlik, sevgi, vatanga mehr kabi tuyg‘ular seziladi.Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi inson qalbida mehr va ilqlik uyg‘otadi. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o‘rganishlik, ulardan habardor bo‘lishlik hamda ularni hayotga tadbiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqqiyat sari yetaklaydi. Maqsud Shayxzoda hayot yo‘li bizda kuchli harakter shakillantiradi. Uning hayot zarbalariga sabr bilan dosh berishi va o‘z faoliyatidan to‘xtamasdan, matonat bilan ijod qilishi barchamizga o‘rnak bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/>.
2. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
3. Shayxzoda Maqsud. Shoир kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o‘zbekcha).
4. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga
5. Murojaatnomasi.Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti. 25.01.2020
6. Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati. Toshkent – 2009 yil.
7. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda. Ma’rifiy-biografik roman “SHarq” nashriyoti.